

**BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKLARNI
OLDINI OLIISHNING DOLZARB MASALALARI**

Rasulova Lola Xasanovna

Yunusobod tumani 258-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning psixologik va ijtimoiy sabablari, uning bola ruhiyatiga ta’siri hamda zo‘ravonlikning oldini olishning dolzarb masalalari yoritiladi. Shuningdek, oila, maktab va jamiyatning bu boradagi mas’uliyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, bola psixologiyasi, ruhiy salomatlik, emotsional holat, himoya, profilaktika, tarbiya, psixologik yordam.

KIRISH

Bugungi kunda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik dunyo miqyosidagi eng dolzarb ijtimoiy va psixologik muammolardan biri hisoblanadi. Zo‘ravonlik bolaning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik jismoniy, ruhiy, iqtisodiy va beparvolik shakllarida namoyon bo‘lishi mumkin. Haqorat qilish, qo‘rqitish, kamsitish yoki e’tiborsizlik ham zo‘ravonlikning salbiy ko‘rinishlari hisoblanadi.

Psixologik jihatdan zo‘ravonlik bolalarda qo‘rquv, xavotir, tushkunlik va o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Ayrim hollarda bola tajovuzkor yoki ichki tortinchoq bo‘lib qolishi mumkin.

Oilaviy muhit zo‘ravonlikning oldini olishda asosiy omillardan biridir. Mehribonlik, hurmat va sog‘lom muloqot bolaning ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi. Maktab ham bolalarni himoya qiluvchi muhim ijtimoiy muhit hisoblanadi. O‘qituvchilar va psixologlar boladagi salbiy o‘zgarishlarni erta aniqlashlari zarur.

Maktab psixologi tomonidan olib boriladigan profilaktik suhbatlar va treninglar bolalarda o‘zini himoya qilish, hissiyotlarni boshqarish va ijobiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olishda otionalarning psixologik savodxonligini oshirish muhimdir. Farzand bilan samimiy suhbat va ishonchli munosabat ko‘plab muammolarni bartaraf etadi.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va internetdan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Salbiy axborotlar bolaning ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Huquqiy va psixologik himoya tizimini kuchaytirish bolalarning xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Har bir bola xavfsiz va sog'lom muhitda ulg'ayish huquqiga ega. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik ota-ona yoki tarbiyachining bolaga haqiqiy yoki potensial zarar yetkazishiga olib keladigan har qanday xatti-harakat yoki harakatsizlikni o'z ichiga olishi mumkin va bu holat odatda bolaning uyida yoki bola vaqt o'tkazadigan tashkilotlar, maktablar yoki jamoalar joylarida sodir bo'ladi.

Prezident tomonidan "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-996-son, 2024-yil 14-noyabr) qabul qilindi.

Mazkur qonunga ko'ra, bolalarga nisbatan quyidagi zo'ravonlik shakllari belgilangan:

- jismoniy zo'ravonlik;
- jinsiy zo'ravonlik;
- ruhiy zo'ravonlik;
- g'amxo'rlik ko'rsatmaslik;
- ekspluatatsiya qilish;
- ta'qib etish (bulling).

Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllari taqiqlanadi va qonun bilan javobgarlikka sabab bo'ladi. Davlat tomonidan bolalarni himoya qilish maqsadida huquqiy, ma'muriy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda boshqa zarur choralar amalga oshiriladi.

Qonunga muvofiq, zo'ravonlikdan jabrlangan bolalarning huquqlari himoya qilinadi hamda ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus chora-tadbirlar joriy etiladi. Jumladan, zo'ravonlikdan jabrlanganlarga himoya orderi berish tartibi yo'lga qo'yilgan. Himoya orderi ichki ishlar organlari tomonidan rasmiylashtiriladi va jabrlanuvchiga yoki uning qonuniy vakiliga vakolatli davlat organi ishtirokida topshiriladi. Ushbu order 30 kungacha muddatga berilib, rasmiylashtirilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatli davlat organi hisoblanadi. Agentlik tomonidan bolalarga yordam ko'rsatish, maslahat berish va zo'ravonlik holatlarining oldini olish maqsadida O'zbekiston hududida tunu kun faoliyat yurituvchi ishonch telefoni tashkil etilgan. Ushbu telefon orqali olingan ma'lumotlarning maxfiyligi qat'iy ta'minlanadi. Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab olti oy o'tgach kuchga kiradi. Mazkur qonun loyihasi Adliya vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Ba'zan ota-onalar turli salbiy yoki qo'rqinchli xabarlarini eshitib, farzandlari bilan haddan tashqari jiddiy va qo'rqituvchi ohangda suhbatlashishga harakat qiladilar. Biroq bu usul har doim ham samarali bo'lavermaydi. Zo'ravonlikning oldini olish

bo'yicha tushunchalarni bolaga sodda, xotirjam va tushunarli tarzda yetkazish muhimdir.

Kundalik hayotda uchraydigan oddiy vaziyatlardan foydalanib, bolalar bilan xavfsizlik haqida suhbatlashish mumkin. Masalan, multfilmlar yoki bolalar dasturlaridagi ayrim voqealar orqali ota-onalar farzandlari bilan qisqa va foydali suhbatlar olib borishlari mumkin. Agar multfilm qahramoniga nisbatan zo'ravonlik holati ko'rsatilsa, ota-onalar shu vaziyat asosida bolaning fikrini so'rashi va to'g'ri xulosa chiqarishga yordam berishi maqsadga muvofiqdir.

Farzandga bolalarni urish yoki ularga zarar yetkazish noto'g'ri ekanini, har bir bola himoyalani huquqiga ega ekanini tushuntirish zarur. Shuningdek, maktabda, ko'chada yoki boshqa muhitda uchrashi mumkin bo'lgan xavfli vaziyatlardan qanday saqlanish kerakligi haqida ham suhbatlashib turish foydalidir.

Bolalar ulg'ayib, mustaqil harakat qila boshlaganlarida — masalan, yolg'iz maktabga borish, velosiped haydash yoki kutubxonaga chiqish kabi holatlarda — xavfsizlik qoidalarini yana bir bor eslatish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, ota-onalar bolalar bilan suhbat davomida qo'rqituvchi yoki keskin so'zlardan foydalanmasliklari tavsiya etiladi. Masalan, "xavfli vaziyat" yoki "xavfli teginish" kabi iboralar bolaning ruhiyatiga salbiy ta'sir qilmaydi va mavzuni yengilroq tushunishga yordam beradi.

Eng muhimi, suhbat bolaning qo'rquvini oshirishga emas, balki uning o'zini himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi kerak. Bu esa bolada o'ziga ishonch hissini kuchaytiradi va turli noxush vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutishga yordam beradi.

Zo'ravonlikning oldini olish ko'nikmalari:

Agar bola tahdidli vaziyatga tushib qolsa, u tanlash uchun bir nechta variantga ega bo'lishi kerak. Quyida ota-onalarga farzandlari bilan muhokama qilishlari mumkin bo'lgan variantlar mavjud.

1. Xavfdan qochish. Maktabga, qo'shnilarnikiga, do'konga yoki uyga yugurib qochish. Eng yaqin xavfsiz joyga yugurish. (Ota-onalar bolalarga har kuni boradigan marshrut bo'ylab barcha xavfsiz joylarni aniqlashga yordam berishlari kerak.)

2. Baland ovoz bilan qichqiring va xavfsiz bo'lguningizcha baqirishni to'xtatmang. Ushbu strategiya amaliyotni talab qiladi, chunki bolalar ko'p hollarda qichqiriq qo'pol deb o'rgatiladi. Xavfli vaziyatda qichqiridandan foydalanish uchun kattalar ham, bolalar ham qichqiriqni takrorlashlari kerak. Bunday mashqlar uchun siz podvalga tushishingiz yoki hech kimni qo'rqitmaslik uchun eshiklarni mahkam yopishingiz kerak. Kichkina bolalar bilan qichqiriqni mashq qilganingizda, pastroq ovozda qichqirishni boshlang va asta-sekin qichqiriqni balandroq va yana balandroq

ovozda bajaring. Kichkina bolalar uchun baland ovozda qichqiriq qo‘rqinchli bo‘lishi mumkin.

3. Xavfsiz va xavfli sirlarni aniqlang. Tug‘ilgan kunga yoki sir saqlanadigan boshqa bayramga tayyorgarlik ko‘rish yoki yashirin sovg‘a xavfsiz sir bo‘lib, ular bolada qo‘rquv hissini uyg‘otmaydi. Xavfsiz sirlar ko‘pincha bolalarda qo‘rquv yoki xijolat hissini uyg‘otadi. Xavfli sirni har doim sizga yordam beradigan kattalar bilan bo‘lishish kerak.

4. Farzandingiz bilan birgalikda xavfsiz kattalarning ismlarini doimo yeslab turing. Xavfsiz kattalar-bu bolani tinglaydigan, unga ishonadigan va unga yordam beradigan kattalar. Bolaga onasi va otasidan tashqari boshqa kattalar kerakligini unutmang. O‘qituvchilar, buvim, bobo, do‘stlar, qo‘shnilar - bularning barchasi bolangiz uchun xavfsiz kattalar bo‘lishi mumkin.

5. Farzandingizga “yo‘q” so‘zini aytishiga ruxsat bering. Ko‘pgina bolalar kattalarga yo‘q deb aytish mumkin emas va ular buning uchun jazolanadi deb o‘ylaydilar. Biroq, bolalar so‘rovlar yoki talablar bilan ularni qo‘rqitadigan har qanday kattalarga “yo‘q” deyishlari kerakligini tushunishlari kerak. Farzandlarimiz giyohvand moddalarni iste‘mol qilishdan bosh tortganlarida biz ularni rag‘batlantiramiz va ularga giyohvand moddalarni taklif qilishi mumkin bo‘lgan kattalarni rad qilganda ularni qo‘llab-quvvatlashimiz kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish oila, maktab va jamiyatning hamkorligini talab etadi. Sog‘lom psixologik muhit va to‘g‘ri tarbiya orqali bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI :

1. Adamovich T.V., Yegorova M.S., Bobryashova I.A. Razvitie temnoy triady u podrostkov i yee svyaz s poryadkom rojdeniya // Psixologiya XXI veka: psixologiya kak nauka, iskusstvo i prizvanie. Sbornik nauchnykh trudov uchastnikov mejdunarodnoy nauchnoy konferentsii molodyx uchenykh: v dvux tomax. Pod nauchnoy redaktsiey A. V. SHaboltas, S. D. Gurievoy. Izdatel’stvo: OOO «Izdatel’stvo VVM» (Sankt-Peterburg). - 2018. -S.11-18.
2. Alekseeva I.A. Travlya v shkole: prichiny, posledstviya, pomoщь / I.A. Alekseeva. - [Elektronnyy resurs]. - URL: <http://psy.su/feed/2510/> (data obrasheniya 05.05.2019).
3. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o‘rganishning o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.
4. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O‘smirlar o‘rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 4(2), 969-972.